

«COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning qarindoshlaridagi ruhiy buzilishlar» mavzusi bo'yicha maqolaga

TAQRIZ

COVID-19 pandemiyasi davrida odamlarning ruhiy holatini o'rganuvchi tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Pandemiya davrida odamlarning ruhiy holati muammosi psixologlar va yordamchi kasb egalarining amaliy faoliyatida psixologik yordam ko'rsatish yo'nalishlarini aniqlash uchun muhimdir, chunki bu bizga bir qator muhim omillarni hisobga olish imkonini beradi. Maqolaning maqsadi - COVID-19 pandemiyasi davrida usbu kasallikka chalingan odamlarning yaqin qarindoshlaridagi ruhiy buzilaishlarni o'rganilgan. Haqiqiy epidemiologik sharoitda xavotirli buzilishlar, depressiya, travmadan keyingi stress buzilishlar va uyqusizlikning namoyon bo'lishini o'rganuvchi tadqiqotlar ko'rib chiqilgan. Bemorlarning qarindoshlarida xavotirli buzilishlar va qo'rquvning shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining rolini ko'rsatadigan ma'lumotlar keltirilgan. Shaxs xususiyatlari va COVID-19 pandemiyasiga nisbatan hissiy va xulq-atvor reaktsiyalarining ma'lum bir uslubi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Ushbu psixologik jarayonlarni chuqurroq tushunish COVID-19 pandemiyasi davrida yuzaga keladigan xavotirli buzilishlar, stress va depressiya kabi ruxiy kasalliklarning oldini olish uchun yanada samarali dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga yordam beradi. Ilmiy-amaliy tomonidan ushbu mavzuni o'z vaqtida o'rganish kerakligiga va dolzarbligiga shubha yo'q. Maqola ilmiy-amaliy qiziqish uyg'ota oladi va ochiq nashrga tavsiya etiladi.

TDSI terapevtik yo'nalishlar

№3 kafedrasi mudiri t.f.d, dotsenti



Sultanov Sh.X.